

“O‘ZBEK XALQI VA DAVLATCHILIGI TARIXIGA OID NAZARIY MASALALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR”

**mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy
anjumani maqolalar
to‘plami**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**SURXONDARYO FAN VA TEXNOLOGIYALARNI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

**“O‘ZBEK XALQI VA DAVLATCHILIGI
TARIXIGA OID NAZARIY MASALALAR:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar
to‘plami**

Termiz-2025

“O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga oid nazariy masalalar: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami– T. : “Surxon ilm nashri” nashriyoti”, 2025. – 644 b.

Muharrir:
S.Tursunov

Ma’sul muharrirlar:
T.Pardayev, X.Xolmuminov, G‘.Mamarajabov I.Qarshiyev

© “O‘ZBEK XALQI VA DAVLATCHILIGI TARIXIGA OID NAZARIY
MASALALAR:MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
maqolalar to‘plami

© “SURXON ILM NASHRI” nashriyoti, 2025-y.

Yangi O‘zbekistondagi jadal islohotlar davlat boshqaruvidagi sifat jihatidan tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu vazifa ilg‘or mamlakatlar tajribasida sinalgan o‘ziga xosliklarni qo‘llash bilan bir qatorda, qadimiy davlatchiligimiz tarixidagi boy tajribadan foydalanishni ham talab etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek xalqi o‘z tarixi va madaniyatini, o‘zining kelib chiqish tarixini haqqoniy bilishga intilishi kuchaydi. “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga oid nazariy masalalar: muammo va yechimlar” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman O‘zbekiston hududlarida davlatchilikning shakllanishidan boshlab bugungi kungacha o‘tgan davr mobaynida davlatchilikning sohasida yuz bergan taraqqiyot jarayonlari, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar va ularning xususiyatlari, o‘zbek davlatchiligining rivojlanishi bosqichlari hamda o‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni bilan bog‘liq nazariy masalalar, fandagi muammolar va ularning yechimlariga qaratiladi.

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plamiga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar professor-o‘qituvchilari va talabalari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining O‘zbekistonning tarixi, ilk davlatchilik bosqichlari, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, fan va texnika taraqqiyoti, yoshlar siyosatiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalari kiritiladi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi fevraldagi №-490 farmoyishiga muvofiq, “O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga oid nazariy masalalar: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plamiga ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning professor-o‘qituvchilari, mutaxassislari, ilmiy xodim, izlanuvchilar hamda iqtidorli magistr va talabalarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Mazkur to‘plam Termiz davlat universiteti Tarix fakultetining 2025-yil 6-apreldagi yig‘ilishida muhokama etilib, ilmiy kengashga taqdim qilindi. Termiz davlat universiteti ilmiy kengashining 2025-yil 7-apreldagi 8-sonli yig‘ilishida ushbu to‘plam muhokama etilib, nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar taqdim qilgan ilmiy maqolalari faqat texnik jihatdan tahrir qilindi. Shuningdek, maqoladagi ilmiy fikrlardagi noaniqlar va kamchiliklar uchun maqola muallifi javobgar bo‘lib, tahrir hay’ati ushbu masaladagi javobgarlikdan o‘zini soqit qiladi.

АССАЛОМУ АЛАЙКУМ МУХТАРАМ АНЖУМАН ИШТИРОКЧИЛАРИ!

Ҳурматли азиз меҳмонлар Янги Ўзбекистон шароитида мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар ва инсон қадрини улуғланиши таълим ва илм-фанга берилаётган юксак эътибор туфайли ҳаётимизнинг ҳар бир кунида ўзгача шукуҳ ва бунёдкорлик ишлари кўзга ташланмоқда. Бу эса аввало ҳар биримизнинг юртимизда кечаётган улкан ўзгаришлар жараёни билан дахлдорлик ҳиссида яшашлигимизни тақозо этади.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Миромонович воҳамиз тарихига жуда катта баҳо бериб, Сурхон заминининг соддадил, меҳридарё инсонлари ҳамиша юртимизнинг равнақига ўзларининг муносиб улушларини қўшганлиги, воҳанинг мард ва жасур фарзандлари доимо сарҳадларимиз ҳавфсизлигимиз йўлида мардлик ва матонат намуналарини кўрсатганлигини таъкидлашлари воҳамиз аҳлининг ватанпарварлиги ва юрт равнақига қўшган ҳиссасининг эътирофи саналади. Шу жумладан, мухтарам Президентимиз Термизлик алломаларнинг илм-фан ва ислом дини тараққиётига қўшган буюк хизматларини ҳам алоҳида таъкидлаб ўтишлари барчамизнинг қалбимизга фахр ва ифтихор туйғуларини жўш урдиради. Мамлакатимизнинг жанубий дарвозасида жойлашган Сурхон воҳаси ниҳоятда улкан тарих ва бой қадриятларга, юксак маънавиятга бешик бўлган минтақа саналади. Шу боисдан ҳам ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихида Сурхон воҳасининг алоҳида ўрни мавжуд. Чунки, Сурхон воҳаси тарихи жуда узоқ даврларга бориб тақаладиган қадим маскандир. Ўтмиш тарихимиз учун ниҳоятда муҳим бўлган археологик ёдгорликларнинг ҳам аксарият қисми шу воҳада жойлашган. Шунингдек, воҳа ҳудудида инсониятнинг энг қадим аجدодлари макон тутган замин ҳамдир.

Воҳамиз ҳудудида жойлашган Зараутсой тасвирлари ибтидоий одамлар тафаккур ва тасавури асосида яратилган бўлса, ўз аҳамияти жиҳатдан Сополлитепа обидаси минтақада ўтроқ тарзда турмуш кечирган аجدодларимизнинг илк макони саналади. Жарқўтонда шаклланган илк шаҳар маданияти эса Марказий Осиёда шаҳарсозлик анъаналарининг дебочаси ҳисобланади. Шунини алоҳида ғурур ва ифтихор билан таъкидлаш лозимки, давлатчилигимиз илк пойдевори ҳам шу заминда қарор топган қадим Бактрия ҳудудлари билан чамбарчас боғлиқликни касб этади.

Юксак фалсафий – ахлоқий таълимотларга асосланган зардуштийлик дини негизларининг юзага келишида ҳам қадим Бохтарзаминининг ўзига хос ўрни бор. Шунини алоҳида ғурур ва ифтихор билан таъкидлаш жоизки, минтақанинг қадим маданияти Салавкийлар ва Юнон-Бактрия подшоликлари даврида эллин маданияти билан омукталашиб, ҳатто унга белгиловчи таъсир ўтказган. Кушонлар салтанатининг равнақи ҳам ана шу табаррук замин билан чамбарчас боғлиқ тарзда кечган. Қадим Сурхон воҳаси ўрта асрлар шароитида ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган тарихий воқеаларнинг гувоҳи бўлиб, ҳатто соҳибқирон Амир Темур ҳазратлари ҳам давлатчилик рамзи бўлган туғ ва ноғорани Термиз яқинида Биё қишлоғида қабул қилиб олди. Ўрта аср даврида воҳада яшаган кўплаб алломалар диний ва дунёвий билимлар тараққиётига ҳам ўзларининг

муносиб улушларини кўшдилар. Инсоният маънавий хазинасини бойитиб, ислом дини равнақида воҳа илм аҳлининг ўзига хос беқиёс хизмати бор. Тасаввуф тариқатининг йирик вакиллари Ал-Ҳаким ат-Термизий, Хожа Алоуддин Аттор ва Сўфи Оллоёр ҳазратлари ҳам ана шу замин фарзандларидир. Яна шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, воҳа аҳолисининг бой моддий ва маънавий мероси бугунги кунда дунё олимларининг назарида турганлиги ҳам бежиз эмас.

Ҳақиқатдан ҳам Сурхон воҳаси ўзбек давлатчилиги тарихида муҳим ўрин тутган. Чунки қадимги Бақтрия давлати илк давлатчилигимизнинг ёрқин намуналаридан бири саналади. Қолаверса давлатчилигимизнинг турли босқичларида юртимизга қадам босган босқинчиларга биринчи бўлиб қарши турган, уларга қарши мардонавор кураш олиб борган воҳамизнинг мард ўғлонларининг жасорати тарих зар варақаларидан муносиб ўрин олган. Жумладан, Термиз шаҳри азалдан “Мадинаат ар рижжол” яъни мардлар ва авлиёлар шаҳри деб бежизга айтилган эмас. Қолаверса, воҳамиз аҳлининг анъанавий хўжалик фаолияти, узоқ тарих мобайнида яратилган моддий маданият дурдоналари, халқ маънавиятининг ажралмас қисми саналган удумлари, юксак маънавий қадриятлари ҳам халқимизнинг бебаҳо бойликлари саналади.

Муҳтарам анжуман қатнашчилари!

“Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихига оид назарий масалалар: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги халқаро илмий анжуманининг ҳам ўзига хос маъноси бор.

Чунки, Янги Ўзбекистон шароитида халқимиз тарихини хусусан, ўзбек давлатчилиги тарихини янгича руҳда ҳолисона таҳлил қилиш имконияти юзага келди. Бу имконият туфайли олимларимиз томонидан тарихимизнинг ҳали очилмаган жуда кўплаб қирралари таҳлил этилиб, юртимиз тарихидаги кемтикликлар мунтазам тўлдирилиб борилмоқда. Шу жиҳатдан олиб қараганда бугунги анжуман ўзининг мақсад ва вазифалари илгари сурган ғоялари билан Ўзбекистон тарихи саҳифаларини янада бойитади. Хусусан давлатчилигимиз тарихининг очилмаган қирраларини очишга муносиб улуш бўлиб қўшилади деб ҳисоблайман.

Ҳурматли меҳмонлар ва илм аҳли қадим Сурхон заминига хуш келибсиз! Сизларнинг илмий ва ижодий фаолиятларингизга доимо муваффақиятлар ёр бўлсин, анжуманнинг сермазмун ва мунозараларга бой тарзда ўтишига тилакдошман **ЭЪТИБОРИНГИЗ УЧУН РАҲМАТ!**

Термиз давлат университети
Ректори

и.ф.д., проф. А.Ҳ.Тошқулов

BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO'RG'ONINING ANTIK VA O'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI

S.Z.Pirimqulov

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya yo'nalishi talabasi;

Ilmiy rahbar: I.N.Naimov

Buxoro davlat universiteti

"Arxeologiya va Buxoro tarixi"

kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida joylashgan Vardonze qo'rg'oni haqida malumotlar berilgan. Shaharning kelib chiqishi va tarixi haqidagi malumotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Var", Muhammad an-Narshaxiy, Shopur, arablar davri, arxeologik qidiruvlar va topilmalar.

O'zbekistonning har bir hududida qadimgi davrdan beri shakllanib kelgan shaharlar ko'plab uchraydi. Shunday shaharlardan biri Buxoro viloyatining olis tumani Shofirkonda joylashgan Vardonze (Varzonze, Vardona, Vardanzi) qal'asi hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, "Shofirkon" atamasining kelib chiqishi Vardonze qo'rg'oni paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu haqda X asrda yashab o'tgan tarixchi olim Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida qayd etilgan.

Arxeologik qazishmalarning dalolat berishicha "Qo'rg'oni Vardonze" nomi bilan mashhur yodgorlik VI – XIX asrlar davomida mavjud bo'lib, Zarafshon daryosining ko'yi oqimi bo'yida joylashgan va mazkur hududda aholi istiqomat qilib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlangan.

Qo'rg'onning uzunligi 110 metr, kengligi 60 – 70 metr, balandligi 45 - 50 metr. Vardonxudotlarning maxsus qarorgohi bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Shopurkom atamasi Sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingan. Shopur Buxoroga kelib, Buxorxudotdan yer olib qasr va qishloq qurdirgan va unga ariq keltirgan. Narshaxiyning yozishicha, bu katta bir qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kuni bozor bo'lib savdogarlar ko'p kelar edi. Arablar hujumi arafasida (VIII asr boshi) Vardonze Buxorodan alohida mustaqil podsholik poytaxtiga aylangan. Vardonze hukmdori Vardonxudot arablar uchun Buxorxudotlardan xavfliroq bo'lgan. X asrda Vardonze obod shahar edi. Amir Temur Turonda hokimiyatni egallashdan avval opasi va boshqa yaqinlarini Vardonze va Zandonachida qoldirgan. Vardonzeda to'qilgan ka'bapo'sh Makkaga olib borilgan. Akademik Yahyo G'ulomovning arxeologik va etnografik kuzatishlari Vardonzening XX asr oxirlarigacha obod savdo-hunarmandchilik shaharchasi bo'lib kelganligini ko'rsatadi. XVIII-XX asr boshlarida Vardonze Buxoro amirligining Shofirkon tumani markazi bo'lgan. XVIII-XIX asrlarga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi ichki nizolardan Vardonze ancha jabrlangan. Sadriddin Ayniy guvohlik

berishicha, 1880-yillarda Vardonze va uning atroflarini qattiq shamol natijasida kuchli qum bosadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Vardonze XX asrning boshida ham obod bo'lib, savdo va hunarmandchilik markazi sifatidagi o'z mavqeini saqlab qoldi.

Mulla Qurbonjon Fitrat Vardonzehiy Buxoriy (vafoti 1888-yil) Vardonzeda tug'ilib o'sgan bo'lib, tojik va o'zbek tillarida she'rlar yozgan, Buxoroning mashhur qozilaridan biri bo'lgan.

Vardonze va uning atroflari Buxoro amirligi, qizil askarlar tomonidan tugatilgach, BXSrdagi boshlangan sovet tuzumiga qarshilik harakatining asosiy markazlaridan biriga aylandi (1920-1924-yillar). Aholi 1954 yilgacha Vardonze qo'rg'onida yashagan, so'nggi qum bosishdan keyin uni tark etishga majbur bo'lgan. Bugungi kunga kelib Vardonze o'rnida qo'rg'on tepalik mavjud. Qo'rg'onning ustida marmartosh saqlanib qolgan. Hozirgi paytda qo'rg'on atrofi nurab, ancha yemirilib, ayrim joylari o'pirilib ketgan. Bu hududda Qo'rg'oni Vardonze, Ko'hna Vardonze qishloqlari bor. Vardonze davlat tabiat yodgorligi tashkil qilingan.

Tarixchimiz Muhammad an-Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Vardona Shopurkonning tarixi Buxorodan qadimiyroq ekanligi, u bir mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'lganligi, ma'naviy hayot taraqqiy topganligi, savdo-sotiq rivojlanganligi va bundan tashqari, chet davlatlar bilan bevosita aloqa qila olganligi

haqida behisob malumotlar keltirilgan. Vardonze toponimi haqida gapiradigan bo'lsak, "var" so'zi so'g'dcha tildan olingan bo'lib, aholi yashaydigan va chorva mollarini saqlash uchun chor atrofi devor bilan o'rab olingan qadimgi istehkom manosini bildiradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi bo'lmish Avestoda ham "var" so'zi shahar manosini bildiradi. Masalan, "Vardonze", "Varaxsha", "Dalvarzin" kabi toponimlar ham shu so'z asosida qurilgan. Vardonze - "qo'rg'on", "podshohlarning maxsus qarorgohi" degan manolarni ham anglatadi. Bundan tashqari "Qo'rg'oni Vardonze" nomlari bilan ham atalgan.

Xitoy manbalarida "Vardoni", "Vardono" shakllarida uchratishimiz mumkin. Bu yurt tuproqlariga mahliyo bo'lib qolgan, unga muhabbat kishvari, qalb gavhari deb qaragan Shopur ismli yigitning e'tiroflari, suv olib kelib bu yerlarni obod qilganligi bu zaminni ne chog'li go'zal bo'lganligidan dalolat beradi. Asli bu diyori atamasining kelib chiqishi haqida gapiradigan bo'lsak, Sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan kelib chiqqan. III-IV asrlarda bu shahzoda o'z lashkarlari bilan shu hududga ov qilish maqsadida keladi. Bu yerlar unga yoqadi va Buxorxudotdan bu yerlarni olib qasr va qishloq qurdirgan hamda Kom nomli ariq qazdirib, tepalikka suv olib chiqqan ekan. Shunday qilib u yerda Shopurning katta mulki paydo bo'ladi. Shopurning vafotidan keyin qishloqlar uning avlodiga meros bo'lib qoldi. Qutayba ibn Muslim Buxoroga kelgan vaqtda Shopur avlodidan Vardonxudot hukmronlik qilayotgan edi. Bu hukmdor va Tag'shoda Buxorxudot o'rtasida ziddiyatlar mavjud edi. Vardonxudot vafotidan so'ng Qutayba Buxoro mulkini Tag'shodaga berdi. Narshaxiy yozishicha, bu katta bir qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega bo'lgan ekan. Bu hudud Turkistonning chegara viloyatida joylashganligidan savdo aloqalari rivojlangan deyishimiz mumkin. Har haftada bir marta bozor bo'lgan va savdogarlar ko'p kelgan. Vardonze o'z matolari bilan mashhur bo'lgan. Hatto u yerda to'qilgan

ka'bapo'sh Makkaga olib borilganligi haqida malumotlar uchraydi. VIII asr boshlaridan boshlab arablar kirib kelgan.

Hozirgi kunda tepalikda olib borilayotgan arxeologik qazishmalardan chiqayotgan eksponatlar, asosan, VIII-XII asrgacha arablar bu hududda bo'lganligini bildirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu hudud juda boy bo'lgan va bu yer uchun tinimsiz janglar bo'lganligi ham isbotlanmoqda. Qanday deysizmi? Qazishmalarda bir hududdan bosh suyagi topilayotgan bo'lsa, boshqa hududdan tana suyaklari topilmoqda. Bu shak-shubhasiz bu yerda qaqshatqich janglar bo'lganligidan dalolat beradi.

Vardonzedagi izlanishlar davomida juda ko'plab Xitoy tangalari va boshqa davlat tangalari topilgan. Kolleksioner Akram Asqarovning ham bu tadqiqotlarda xizmatlari katta bo'lgan. Akram Asqarovning kolleksiyalari bilan yaxshi tanish bo'lgan tadqiqotchi N.S. Nikoshinning qayd qilishicha, unda 12171 ta mis, 1489 ta kumush, 17 ta oltin tangalar, sopol va metall idishlar bo'lgan. Uning o'limidan so'ng tangalarning arzimas qismi muzeyga berilib, qolganlari sotib yuborilgan. 1887-yilda rus arxeologiya jamiyati Akram Asqarovni arxeologiyadagi xizmatlari uchun "Arxeologiya yutuqlariga yordami uchun" kumush medali bilan taqdirlangan.

Vardonzening shahriston qismi devor bilan o'rab olingan. Bundan tashqari qal'ani himoyalash uchun 124 gektar uzoqlikda qal'a devori ham mavjud bo'lgan. Devorning balandligi 4 metr bo'lgan. Bu devor, asosan, paxsadan bo'lgan. Uchinchi devor ham mavjud bo'lgan. Shahar X asrda obod bo'lgan. Temuriylar davri tarixida ham bu shaharning o'ziga xos o'rni mavjud edi. Masalan, Amir Temur Turonda hokimiyatni egallaganidan so'ng, o'z yaqinlarini Vardonze va Zandonachida qoldirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

XVIII asrga kelib, Buxoro va Xiva xonliklaridagi nizolardan jabrlangan yurtlar qatorida Vardonzeni ham ko'rishimiz mumkin. Sadriddin Ayniy guvohlik berishicha, 1880-yillarda Vardonze va uning atrofini qattiq shamol natijasida qum bosadi. Ko'pchilik shaharni tark etadi. Biroq shu yerda tug'ilgan Istat momo Qodirova 1943-yilgacha Vardonzedan ko'nglini uzolmay qadimiy qishlog'ida yolg'iz umrguzaronlik qilgan ekan. Akademik Yaxyo G'ulomovning arxeologik kuzatishlari Vardonzening XX asr oxirlarigacha obod savdo hunarmandchilik shaharchasi bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Yuqori madaniy qatlamlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aholi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, qumlarning qayta-qayta ko'chishi jarayonida shaharni tark etganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda Samarqand Arxeologiya Instituti olimlari hamda 2014-yildan buyon Yevro-Osiyo ilmiy tadqiqot jamg'armasi bilan birga tashkil qilingan O'zbekiston-Shveytsariya halqaro qo'shma ekspeditsiyasi mashhur qadimiy manzilda faol tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Hozirda Vardonze tabiat yodgorligi tashkil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shahrining shakllangan tarixiy qismidagi madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish va tartibga solish, tarix, madaniyat va me'morchilik yodgorliklarini har tomonlama o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish, o'zbek xalqining bebaho milliy qadriyatlarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish, Buxoro vohasining tarixiy

qismlarini yagona kompleks sifatida to'la qonli faoliyat ko'rsatishi uchun choralar ko'rish muhim vazifalar hisoblanadi. Zero, Vardonze kabi milliy tariximizning uzoq o'tmishidan dalolat beruvchi shaharlarni har jihatdan tadqiq etish va sayyohlik maskanlari sifatida ulardan foydalanish, jahonga tarannum etish zamon talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзаахмедов Д.К. Крупные городские центры Западного Согда-Бухара, Пайкенд, Варахша – к динамике урбанизационных процессов//Бухара-город на Великом Шёлковом Пути один из центров всемирного туризма. Бухара. 2016.
1. Самарқанд археология институтининг 2023 йилдаги дала тадқиқотлари натижалари / М.М. Саидов таҳрири остида – Самарқанд, 128 бет. 2023.
2. Halim To'rayev. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: "Durdona", 2023.
3. Мухаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расуев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: "Шарқ баёзи", 1993.
4. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). - Тошкент. "Фан", 1991.
5. Adilov Sh.T. G'arbiy Sog'dning ilk o'rta asrlardagi ma'muriy-hududiy tuzilishi. ONU, 1996, № 6.

1-ShO'BA O'ZBEK XALQI VA DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHI JARAYONINING TARIXIY BOSQICHLARI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI		
С.Н.Турсунов	Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихини ўрганишга оид мулоҳазалар таҳлили	6
Эйвазова Е.М., Олимов У. Н.	Музееведение — как наука, изучающая памятники истории и культуры	11
Г.С.Тилеукулов	Культурные связи Республики Казахстан с Республикой Узбекистан	16
В.Агаджанян	Современные проблемы миграции в Узбекистане	23
Р.Ҳ. Муртазаева	Ўрта Осиё халқларида бағрикенгликнинг тарихий илдизлари	25
Sh.A.Nayitov	Muhojir o'zbek (turkistonlik)larning xorijda o'zbek davlatchilik uchun kurashlari tarixidan	29
Д.П. Комолов	Взгляд на историю традиционных судов действовавших в Туркестанской АССР	32
Т.Р.Пардаев	Совет ҳукуматининг ўзбек миллий маданиятига таҳдиди ва унинг оқибатлари	39
Т.Д.Худайкулов	Марказий Осиё хонликлари давлат бошқаруви тарихининг тарихшунослиги	42
С.Д.Бўриев	Марказий Осиёда трансчегаравий сув ресурсларидан фойдаланиш омиллари	57
О.Р.Турғунбоев	Иккинчи жаҳон уруши йилларида совет ҳукуматининг Ўзбекистонга аҳолини кўчириш сиёсати ва тиббиёт соҳаси	67
B.Sh.Mamatqulov	O'zbek davlatchiligi tarixining tarixshunoslik masalalari va muammolari: tahlil hamda natijalar	72
S.N.Yusupova	O'zbek davlatchilik tarixida millatlararo munosabatlar	79
О.А.Исаев	Сурхон воҳасининг иқтисодиётида савдо ташкилотлари фаолияти (1925-1941 йй)	83
Х.Дж.Хидиров	Транспорт соҳасидаги ишчи-хизматчиларининг маиший турмуши ва унинг натижалари (1970-1980 йиллар мисолида)	88
Қ.Базаров	Андижон уездида Россия империяси мустамлакачилиги ҳукумронлиги даврида жорий этилган мустамлакача бошқарув тизими	92
A.N.Sulaymanov	O'zbekistondagi ilk antropologik tadqiqotlar va ekspeditsiyalar	97
Ж.Э.Тангрикулов	XX асрда Ўзбекистон матбуоти: босма нашрлар таснифи	102
А.С.Турсунов	Урбанизацион жараёнларни маданий	108

	юксалишга таъсири ва унинг тарихий таҳлиллари	
X.X.Qobilov	XX asr boshlarida Surxon vohasida yer-suv munosabatlarining amalga oshirilishdagi tahliliy jarayonlari	111
M.M.Allanazarov	Butunbuxoro markaziy inqilobiy qo‘mitasining tuzilishi va faoliyati	116
Z.M.Annayeva	Surxon vohasida shakllangan ilk etnik birliklar	121
S.R.Boboyeva	Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Surxondaryo yoqilgi sanoati: muammolar va yechimlar	126
O.M.Nazarov	“Paxta ishi”- siyosatining fojiali oqibatlari (Surxondaryo viloyati misolida)	131
N.M.Atabayeva	Farg‘ona vodiysi sanoati urush yillarida: iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati	136
U.Quvvataliyev	Bo‘lat Soliyevning “Buxoro tarixi” asarida Turkistonning qadimgi davrlari va etnik manzarasining yoritilishi	143
M.S.Raimov	Sovet hokimiyatining Termizga bosqini tarixi haqida	147
Я.Ю.Кенджаев	Янги барпо этилган электростанциялар ва sanoat korxonalari (1941-1945)	151
A.Ч.Қосимов	Сурхондарё округида қўйчилик соҳаси бўйича олиб борилган тадбирлар	155
J.Sh.Choriyev	O‘zbekistonning janubiy-sharqiy shaharlari urbanizatsion jarayonlarida ishlab chiqarish va savdo aloqalarining tutgan o‘rni	159
I.B.Toshboltayev	Jarqo‘rg‘onlik jangchilarning fashizmga qarshi kurashi	163
D.M.Shermanova	Jadidchilik harakati: XIX asr oxirida musulmon ta’lim va madaniyatning yangilanish yo‘li	169
B.G‘.Qurbonov	O‘zbekiston musulmonlari idorasi faoliyati va rivojlanish bosqichlari	173
F.A.Djunayev U.Sh.Zokirov	XX asr 40-50-yillarida O‘zbekistonda tarix fanining ahvoli	177
U.K.Ravshanova	Munavvar Qori yashagan davr	182
E.Ch.Ermuratov, A.Q.Suyunov	Surxondaryo okrugi aholisining demografik jarayonlari (1930-1970 yy.)	189
I.N.Bobomurodov	Millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlarning aholi migratsiyasiga ta’siri (Farg‘ona voqealari misolida)	195
Sh.O.Tillayeva	1920-1930-yillarda Surxon vohasida o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va savodsizlikni tugatish muammolari	199

A.T.Toshmamatov	O'zbek davlatchiligi tarixining tarixshunoslik masalalari	203
2-ShO'BA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHLARI		
Б.Ж.Эшов	Қадимги даврлардаги археологик ёдгорликларнинг шаҳарсозлик хусусиятлари (тарихий – маданий вилоятлар кесимида)	206
Lauren Morris, Jakub Havlík, Kakhramon Toshaliyev	Rural Development in Antique Northern Bactria: Key Questions of the Kushan Period and Preliminary Impressions from the Autumn 2023 and Spring 2024 Seasons of Fieldwork at Kulal Tepa (Sherabad District)	211
Н.О.Хушваков, Г.И.Богомоллов, Е.М. Эйвазова.	Образ Сиявуша и археологические материалы Узбекистана	218
З.Э Холиков, С. де Понбрианд	Новые археологические находки Чингизтепа 2	227
О.А.Хамидов	Туроннинг аҳамонийларга қарамлик давридаги маъмурий-худудий бўлиниши: сатраплик институти таҳлили	237
B.N.Abdullayev	Zardusht – yurtimizda ilk davlatchilik darakchisi	246
A.A.Qarshiyev, U.R.Muminov, M.T.Jo'rakulova	Qadimgi turklarda ovchilik an'anasi va harbiy ta'lim	252
S.Ch.Rasulova	Regressive Processes in the Bronze Age Pottery of the Turan Region	259
G.M.Murodova	Videvdatning ilmiy-texnologik xaritasi (2-Fargard misolida)	264
M.Z.Norxamidova	Mitra xudosining gliptikada ifodalanishi	267
3-ShO'BA O'RTA ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI		
С.Н.Турсунов	Бухоро амирлиги ижтимоий-иқтисодий ва маданий-сиёсий ҳолати тавсифини тарихий таҳлил этган Н.В.Ханиковнинг мулоҳазалари	273
Ш.С.Ғаффоров	Ўзбек давлатчилиги тарихида Темурийлар давридаги таълим тизими муҳим манба сифатида	278
Э.О.Қобулов, К.Э.Қобулов	Манғитлар даври Сурхон воҳаси тарихи архив манбаларда	285
Х.Е. Холмуминов	Бухоро амirligi tarixida janubiy vohalar beklklarining ahamiyati	289
А.Хасанов	Сурхондарё воҳаси шаҳарлари тараққиётидаги ўзгаришлар.	294
F.E.Toshboyev,	Jizzax vohasining ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-	301

N.B.Eshmamatova	siyosiy hayoti tarixidan	
M.H.Сайидов	Қорахонийлар даври давлат бошқаруви масаласи	307
Ж.Н.Турсунов	Сурхон воҳасида қадимда ва ўрта асрлар шаҳарлари тараққиёти	312
Ж.Мирзаев	Темурийлар даври давлатчилигида Термиз	316
Р.Р.Нуркулова	Амир Темурнинг ватанимиз тарихидаги ўрни	322
D.O‘.Yangiboyeva, T.B.Abdimo‘minov	Sherobod bekligi I.L.Yavorskiy talqinida	327
М.Э.Эргашев	Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида илк ўрта аср давлатлари шаклланишининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий асослари	332
B.B.Tugalov	Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida	336
Ш.Т.Худайбердиев	Сурхон воҳаси суғориш иншоотлари тарихидан	343
S.S.Sharapov	Sharqiy Buxoro shaharlaridagi ma’naviy -adabiy muhit (XIX asr - XX asr boshlari)	346
O.A.Abdig‘apparov	Shayboniy hukmdor Ubaydullaxon haqida xususida ba’zi mulohazalar	349
Ж.А.Тожиев	Бухоро амирлигида миллий таълим ва унинг таҳлили	354
N.T.Qudratov	Surxon vohasi bekliliklarining ichki va tashqi savdo aloqalari	357
M.E.Jumayev	Chag‘oniyon toponimining tarixiy – etimologik tahlili	362
Sh.S.To‘xtayev	Buxoro amirligi qo‘shinidagi o‘tochar qurollar tavsifi	365
B.Toshimov	XIX-XX asr boshlarida Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.	370
S.Z.Pirimqulov I.N.Naimov	Buxoro vohasidagi Vardonze qo‘rg‘onining antik va o‘rta asrlar davri tarixi	376
R.J.Qahramonov	Amir Temurning tarixini o‘rganishda “Ajoib al-Maqdur fi tarixi Taymur” asarining ahamiyati	380
4-ShO‘BA MUSTAQIL O‘ZBEKISTON – O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA YANGI BOSQICH		
M.X.Fayzullayeva	Yangi O‘zbekistonda turizm salohiyatini oshirishdagi muhim qadamlar	384
Б.С.Рахимов	Мустақиллик йилларида Сурхондарё вилоятида ижтимоий-маданий соҳаларнинг ривожланиши	389
I.G‘.Jalilov	Oila - mahalla - ta’lim muassasasi hamkorligining	393

	yosh avlod tarbiyasidagi oʻrni	
F.X.Utayeva	Mustaqillik yillarida yengil sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlar	401
Ф.У.Холманова	Изменения в процессе индустриализации Сурхандарьинской области	406
Ғ.А.Мамаражабов	Касаначилик соҳасидаги ютуқлар ва истиқболли йўналишлар	409
Н.О.Икромов	Yoshlarning harbiy burchini ado etishida tarixiy shaxslarning oʻrni	415
D.S.Igamberdiyev	Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda taʼlim islohotlari: yutuqlar, muammolar va istiqbollar	418
A.T.Ahmedov	Andijon viloyatida xotin-qizlar bandligini taʼminlashda kasaba uyushmalari va “Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi” hamkorligining roli: tikuvchilik va toʻqimachilik sanoati misolida ilmiy-nazariy tahlil	426
Z.A.Maxmudova	Mustaqillik yillarida Andijonda irrigator va meliorator kadrlarni yetishtirish tarixi	432
Ў.С.Турсунов	Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотларда инсон омилининг ижтимоий ҳимоя жараёнидаги ўрни: тарихий таҳлил	441
X.Q.Mulkamonov	Surxon vohasida taʼlim-tarbiya va maʼnaviyatning yuksalishida Termiz davlat universiteti olimlarining davriy matbuotda chiqishlarining ahamiyati	445
X.X.Мирзаев	Развитие системы коммунального хозяйства в Сурхандарьинской области в годы независимости	451
X.N.Tursunov	Termiz davlat universiteti tarix fakulteti faoliyati tarixidan	455
A.X.Хотамов	Советская идеология и ее негативное влияние на культурную жизнь Сурхандарьинской области	459
F.R.Yangiboyev	Yangi Oʻzbekiston maʼnaviy taraqqiyotining huquqiy asoslari	463
M.Oʻrolova	Onalik va bolalikni muhofaza qilish tarixi (2002-2005- yillarda Surxondaryo viloyati misolida)	466
O.T.Dusmatova	Cultural Cooperation of Uzbekistan and Afghanistan in the 21st Century	470
K.Umurqulov	Mustaqil Oʻzbekiston yoshlarini tarbiyalashda milliy-madaniy qadriyatlar va ahloqiy	474

	me'yorlarning ahamiyati	
D.B.Yusupov	XX asr so'ngida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga xorijiy investitsiyalarining jalb qilinishi va uning ahamiyati	478
O.A.Yuldosheva	To'qimachilik sohasining Surxondaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni	482
A.T.Turcuinov	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини янада ривожлантириш таҳлиллари	485
5-ShO'BA O'ZBEK XALQI MODDIY VA MA'NAViy MADANIYATINING DAVLATCHILIK TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI		
O.B'uriyev, X.Toshmurodov	Академик Карим Шониёзовнинг ўзбек этнографиясига қўшган ҳиссаси	488
O.B'uriyev	Ўзбеклар оила-никоҳ маросимларини этнографик ўрганиш (Жанубий Ўзбекистон мисолида)	497
F.Sh.Raxmonov	Milliy dehqonchilik madaniyati va transformatsiya jarayonlari (Janubiy O'zbekiston misolida)	506
M.B.Qurbonova	Ўзбекнинг биринчи элшунос академиги	513
H.A.Abdullaeva	Матолар билан боғлиқ урф-одат расм-русумлар	516
M.Usmonov	Ўзбек халқи этник тарихида қўнғиротлар	522
G.O'.Axmedova	Xalqona an'analarning rivojlanishida baxshichilik san'atining o'rni	527
I.I.Umarov	Жанубий Ўзбекистон қатағонларида чорвачилик билан боғлиқ удумлари	531
I.I.Umarov	Жанубий Ўзбекистон қатағонларининг анъанавий қийимлари	534
I.M.Karshiev	Трансформационные процессы в материальной культуре кунгратов	538
S.A.Ergasheva	Surxon vohasi gilam va gilamchilik tarixidan	546
A.A.Berdiyev	Nurota tizmasi shimoliy yon bag'ri aholisining mashg'ulotlari	551
D.T.Mallayev	Surxon vohasida hunarmandchilik bilan bog'liq urf-odatlar	555
M.H.Rahmonov	Toqchi qishloq aholisining an'anaviy tibbiyot sirlari: etnomeditsina jihatlar	559
I.A.Ergashov	O'zbek xalqi turmushida qadimiy e'tiqod izlari	563
S.H.Choriyev	Mustamlakachilikdan mustaqillika: Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida tarixiy ong va milliy uyg'onish g'oyalari	566

O'.A.Jalilova	Surxon vohasidagi ziyoratgohlar va ular bilan bog'liq urf-odatlar	570
Н.Раҳматуллаева	Ўзбек-хотин қизларининг халқ оғзаки ижодига иштирокининг этномаданий жараёнларига таъсири	572
Sh.X.Kichkilov	Ko'hitang tog'i etaklarida joylashgan Dahparakent qishloqlari tarixshunosligi	576
O.Haydarov	Surxon vohasining tog'li hududlarining an'anaviy hunarmandchiligi	579
Sh.G.To'rayev	Sherobod vohasi aholisi etnik tavsifi B.X.Karmisheva talqinida	582
I.S.Boboxo'jayev	An'anaviy dehqonchilikda homiy kultlar va arxaik tasavvurlar bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar	590
Y.Sh.Karimov	Xalq tabobatida hayvonot va nabodot olamidan foydalanish	596
H.Sh.Shuhratova	Jamiyatning tarixiy madaniyati va "Badash" san'atining tarqalish geografiyasi	600
Sh.A.Toshtemirov	Milliy madaniyatlar rivojida an'ana va urf-odatlarining o'рни	606
A.A.Xursanov	Avesto matnlarida tuyaga oid urf-odatlar: tarixiy-madaniy yondashuv	610
M.M.Rasulova	Tabiat hodisalari bilan bog'liq qarashlar (Ayyomi ajuz misolida)	613
F.K.Bobomurodov	Surxon vohasining olis hududidagi qishloqlarining tarixi xususida (Dashnobod qishlog'i misolida)	616
A.N.Turaboyev	Surxon vohasida moychechakning xalq tabobatidagi ahamiyati	620
М.Т.Қўшоқова	Анъанавий табобатда халқимиз донишмандлиги	623
С.Ж.Қўшоқова	Хирмон қилиш билан боғлиқ халқ удумлари (Сурхон воҳаси мисолида)	625
M.T.Qo'ziyeva	Surxon vohasida dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq udumlar	629
Sh.J.Abduraimov	Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandchikning o'рни	632

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**SURXONDARYO FAN VA TEXNOLOGIYALARNI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

**“O‘ZBEK XALQI VA DAVLATCHILIGI TARIXIGA OID
NAZARIY MASALALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami

Muharrir: S.Tursunov

Ma’sul muharrirlar:

T.Pardayev, X.Xolmuminov, G‘.Mamarajabov I.Qarshiyev

Musahhih: F.Abdimurodov

Texnik muharrir: A.Bo‘riyev

Dizayner-sahifalovchi: A.Tolipov

Terishga 10.04.2024-yilda berildi.

Bosishga 24.05.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Hajmi 10,25 bosma taboq.

Buyurtma № 32. Times New Roman.

Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 644 bet.

“SURXON ILM NASHRI” nashriyoti.

TerDU NMM bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Termiz shahri, “A.Navoiy” ko‘chasi, 42-uy.